



# CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES ISSN: 2660-5317

*Special Issue, 2022 //*  
**"Challenges and Innovative Solutions of Life Safety in Ensuring  
Sustainability in Economic Sectors"**

## Problems in the Field of Preparing all Segments of the Population to Act in Emergency Situations, the use of Innovative Methods in Training

**Turdikulov A.A.**

*Methodologist-teacher of the Educational Center for Life Safety of the Department of Emergency  
Situations of the Samarkand region, turdiquulovanvar@gmail.com*

**Raimkulov A.**

*Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering, Senior lecturer of the Department  
of "Life Safety", 19541@gmail.com*

**Bazarbayev A.A.**

*Teacher of the Training Center for Life Safety of the Department of Emergency Situations of the  
Samarkand region.*

**Adilov S.A.**

*Teacher of the Training Center for Life Safety of the Department of Emergency Situations of the  
Samarkand region.*

*Received 13th Feb 2022, Accepted 15th Mar 2022, Online 7th May 2022*

**Annotation.** The problems indicated in the article and the analysis of the state of the software "Life safety" covers all issues and recommendations for their solution. The use of innovative methods in the educational process of students, students and the population allows them to be prepared and act competently in emergency situations.

**Keywords:** innovative technologies, emergency, consequence of the earthquake, preparation, to act competently, tsunami, medical care, educational and methodical manual, TV screening.

## INTRODUCTION

Bugun biz, fan texnika, yangi texnologiyalar, innovation texnologiyalar yuksak taraqqiy etayotgan zamonda yashayapmiz. Hayotimiz tinch-osuda o'tmoqda. Behisob shukur. Lekin, ommaviy axborot vositalariga nazar tashlasak, deyarli har kuni dunyoning qaysi bir burchagida qandaydir bir favqulodda vaziyat sodir bo'lganligining guvohi bo'lyapmiz. Zilzila oqibatlariga misol, 1948 yil Turkmaniston zilzilasi, Ashxabod deyarli to'liq vayron bo'ldi, vayronalar ostida 110 mingdan-170 ming nafargacha aholi qurban bo'ldi, 2004 yil Hind okeani zilzila oqibatida sunami sodir bo'lib, 230 ming kishining hayotiga zomin bo'ldi,

2008 yil Sichuan zilzilasida 80 ming kishi, shundan 10 ming nafar bolalar maktablarda qurban bo'ldi. Dunyoda shu kabi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lib turgan ekan, undan inson hayoti xavf ostida qolayotgan ekan, tayyorgarlik masalasi, aynan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish masalasi eng dolzarb masalalardan biridir. Xo'sh, bugungi kun aholisi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyormi? Tayyorgarlik darajasi qanday? Yosh bolalar, o'quvchilar, ishchi-xizmatchilar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'limgan aholi, qolaversa, rahbar tarkibi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyormi? Tayyorgarlikni qachon va qayerdan boshlash kerak? Albatta, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish qoidalariga o'rgatishni eng avvalo oiladan boshlashimiz lozim. Buning uchun avvalo oila tayyorgarligiga ahamiyat qaratmoq, jamiyatimizda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish lozim. Kundalik turmushimizda insonning xavfli vaziyatlarga tushib qolish ehtimoli katta. Bu turmushdagi jarohat, transport yoki sanoat avariyasi, yong'in, suv toshqini, sel oqimi yoki boshqa tabiiy hodisalar bo'lishi mumkin. Xavf tug'ilganda tezlikda qanday vaziyat yuz berganligini baholay olish, o'zini ruhan tushib qolmasdan o'zini o'zi qutqarish, xavfning favqulodda vaziyatga aylanishiga yo'l qo'ymaslik, xavfli vaziyatdan chiqib ketish uchun to'g'ri harakat qila bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarning muvaffaqiyatli tugashiga odatda insonning qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan tayyorgarligi hisobiga erishish mumkin.

**Main part.** Aholini favqulodda vaziyatda harakat qilishga doimiy va sifatli tayyorlash, to'g'ri xarakat qilishni bilishi, albatta jabrlanganlar sonining kamayishiga hamda moddiy talofalar kam darajada bo'lishiga olib keladi. Buni mutaxassislarimiz ma'lumotlari ham tasdiqlaydi: favqulodda vaziyatlar sharoitida qurban bo'lganlarning 40% tayyorgarlikdan o'tmaganliklari, to'g'ri harakat qilishni bilmaganliklari oqibatida hayotdan ko'z yumishar ekan. Shunday ekan, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash sohasidagi muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topishga e'tibor qaratmoq lozim. "Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini har tomonlama takomillashtirish muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi mumkin"- deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Fikrimizning yana bir isboti sifatida 2019 yilning 9 sentyabr kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-sonli qarorini va unga ilova qilingan, aholining barcha qatlamlarini tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini belgilovchi Nizomni keltirish mumkin. Nizomga muvofiq, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari belgilab berildi, ya'ni:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi va xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi

bo'yicha bilimlarini izchil oshirib borish va ko'nikmalarini hosil qilish;

- qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash;

- aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'limganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiyo o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi amaliy tibbiy yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish. Qarorga muvofiq, barcha aholi qatlamlari quyidagi toifalarga bo'lingan holda tayyorgarlikdan o'tkaziladi:

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiyo o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalar;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'limgan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyoohlar. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash borasida Samarqand viloyati hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarga, xususan soha yo'nalishi bo'yicha ilmiy-uslubiy markaz sifatida

Samarqand viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv markazi oldiga mas'uliyatli vazifalarni, jumladan: aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali o'quv qurollari, videodarsliklar yaratish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish, ko'chma mashg'ulotlar, treninglar o'tkazish mas'uliyatini qo'yadi. Shu asnoda Samarkand viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan aholining barcha toifalariga mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratib kelmoqda. Xususan, shulardan ayrimlariga to'xtalamiz:

- 1.Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun. **"Bolalarni Hayot faoliyatini muhofaza qilish bo'yicha** "metodik qo'llanma.

- 2.Umumta'lim mifik o'quvchilarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda **"Inson xavfsizligi asoslari"** o'quv dasturi asosida o'qiish uchun uslubiy ko'rsatma.

- 3.**"Maktabda fuqaro muhofazasi kuni"** metodik tavsiyasi va **"Hayot faoliyati xavfsizli"gi** fanining Ta'lim texnologiyasi bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlandi.

- 4.**"Zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakat"**, **"Ta'lim muassasalarida Fuqaro muhofazasi kunini**

**o'tkazish", "Sel va uning oqibatlari"** bo'yicha videoroliklar tayyorlandi.

5. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi uchun eslatma va qo'llanmalar yaratildi. Yutuqlarimiz bilan birga hal etilishi lozim muammolar ham mavjud. **Jumladan:**

- umumta'lim mакtablarida "Hayot xavfsizligi asoslari" fan sifatida o'qitilmaydi, integrasiyalangan xolda fanlar tarkibida o'qitilmoqda, o'quv soatlar soni ham juda oz, (fikrimizcha "Odobnama" darslarini oilada o'r ganish mumkin, lekin hayot xavfsizligi asoslarini mutaxassis o'rgatishi lozim);

- ayrim korxona muassasa va tashkilotlarda ishchi-xizmatchilarining tayyorgarlik darajasi yetarli emas;

- aholining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lмаган qatlami, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, xorij mamlakatlari fuqarolarining tayyorgarligiga e'tibor yetarli darajada qaratilmagan. Xorij tajribasini o'r ganar ekanmiz, Hayot xavfsizligi asoslariga maktabgacha ta'lim muassasalarida e'tibor yuqoriligini, mакtablarda fan sifatida o'qitilayotganligini guvohi bo'ldik. Rossiya Federasiyasida 1994 yildan Xayot xavfsizligi asoslari umumta'lim mакtablarining barcha sinflarida, (1sinfdan – 11 sinfgacha) o'qitilmoqda. Viloyatimiz hozirgi kunda fuqaro muhofazasi sohasida bir qancha ijobjiy ishlarga qadam qo'yilmoqda, Samarqand Davlat Universitetida 2022-2023 o'quv yilidan boshlab, Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishida pedagok kadrlarni tayyorlash bo'yicha takliflar kiritilgan chunki o'quvchilarni hayot faoliyati havfsizligi yo'nalishi bo'yicha pedagok mutaxasislar tayyorlamasdan hyech qanday yutuqqa erishib bo'lmaydi.

Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi uchun qurilayotgan **yangi binosida viloyatimiz aholisini tayyorgarligini oshirishdagi yangi qadamlardan biri** Aholininig innovasion texnologiyalar asosida tayyorlash maqsadida va trenajer simulyator zali tashkil etilmoqda, odamlarni qutqarish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, tezkor yordam xizmatlarini chaqirish, yonayotgan xonadan chiqib ketish kabi vaziyatlarni har bir kishi amalda o'zlarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yaponiyada ham fan sifatida kiritilgan va 1971 yildan boshlab har yili 1 sentyabr kuni zilziladan muhofaza qilish bo'yicha o'quv mashqlari o'tkazish an'anaga aylangan. AQSh har bir shtatida aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash mакtablari mavjud. FEMA rahbarligi ostida ko'p sonli mashg'ulotlar, anjumanlar va ko'rgazmalar o'tkaziladi. Maktab o'quvchilari va talabalar uchun Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va Fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv dasturlari asosida mashg'ulotlar o'tiladi, aholining keng qatlami uchun seminarlar, tematik ko'rgazmalar tashkil etiladi. Asosiy e'tibor birinchi yordam ko'rsatish usullarini o'rgatishga, bolalar va jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan. Fransiyada aholi tayyorgarligi yashash joylari va korxonalarda qisqa muddatli kurslarda, Fuqaro mudofasi organlari, hamda jamoatchilik tashkilotlari – Qizil Hoj, Yong'in xavfsizligi jamiyatlari tomonidan tashkil etilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan xolda, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga

tayyorlash sohasidagi muammolarning yechimlari sifatida quyidagi taklif va mulohazalar kiritilmoqda:

- maktabgacha ta'lim muassasalari, pedagog xodimlarining malakasini oshirish kurslarida “Xayot xavfsizligi asoslari” o'quv soatlarini oshirish; androgogika usulida o'qitish;
- umumta'lismaktablarida “Hayot xavfsizligi asoslari” fanini kiritish; o'smirlarning bilim darajasini oshirish, sohaga qiziqtirish maqsadida, dasturiy kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish;
- oliv ta'lim muassasalarida, “Hayot faoliyati xavfsizligi” o'quv dasturlarini takomillashtirish, hamda keng jamoatchilikni jalg qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda sohaga qiziquvchilar guruhini tashkil etib, ularning bilim darajasini oshirish bo'yicha turli test-savollari, onlayn o'yin dasturlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi-ishchi xizmatchilarning tayyorgarligini o'quv mashqlarida, immitasion qurilmalar orqali, birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatuvchi manekenlardan foydalangan holda amaliy malakaga ega bo'lishiga erishish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'limgan aholini shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan suhbatlar, ma'ruzalar va uchrashuvlarni tashkil etish va o'tkazish, mahallalarda “Ko'ngillilar klublari”ni tashkil etish;

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq va bloglardan foydalanish, internet saytni ommalashtirish - keng tarqalgan va eng samarali chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan:

- favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlashda mazkur kommunikasiya kanalining o'ziga xos xususiyatlaridan, ijtimoiy tarmoq va bloglardan samarali foydalanish umume'tirof etilgan afzallikkarga ega bo'ladi;

- ommaviy axborot vositalari orqali axborot-tahliliy teleko'rsatuvalar, jumladan mutnazam efirga uzatiluvchi “Favqulodda 15 daqiqa” nomli teleko'rsatuvalar tashkil etish, sohaga oid dolzarb masalalar bo'yicha davra suhbatlari, radio eshittirishlar o'tkazish;

- targ'ibot-tashviqot, profilaktika tadbirlarini jonlantirib ko'chma o'quv mashg'ulotlar, piar kompaniyalar, piar aksiyalar, treninglar tashkil etish;

- yurtimizga tashrif buyurgan chet el fuqarolari ya'ni sayyoohlар uchun Xayot xavfsizligi asoslari va fuqaro muhofazasi bo'yicha “Preduprejden znachit voorujen!” (Xushyor va ogoh bo'l!, “Ogoh bo'lgan - demak qurollangan!”) mavzusida ijtimoiy video-roliklar, rangli tasvirda eslatma va broshyuralar ishlab chiqish. O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi instituti bazasida va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Samarqand shahrida FVB tarkibida turli favqulodda vaziyatlarni o'zida aks ettiruvchi interaktiv maydonchalaridan iborat “Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash innovasion - ta'lim markazlari”ni tashkil etish masalasini ko'rib chiqish.

**Conclusion.** Aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlashning ustuvor vazifalari

quyidagilar deb belgilasak mubolag'a bo'lmaydi: ehtimoli mavjud yoki sodir bo'lgan ofat haqida aholini tezkor xabardor etish, aholini ekstremal sharoitlarga moslashishini, ularning ruhiy barqarorligini ta'minlash, hayot faoliyatni xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, davlat boshqaruv organi va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonch muhitini yaratishga rahnamo bo'lish. Shu va boshqa shu kabi vazifalarning yechimi odamlarning xavfsizligini ta'minlashga, ofat oqibatlarini minimallashtirishga hissa qo'shami.

#### References:

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/09/09/book/>

2. 2019 yilning 9 sentyabr kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-sonli qarori.